

"O'zavtoyol" AK rahbariyatida yangi tayinlanish



**O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasining
2016 yil 28 oktyabrdagi
367-sonli qarori bilan Obid
Adilov "O'zavtoyol"
aksiyadorlik kompaniyasi
boshqaruvi raisining
o'rinbosari – bosh
muhandisi lavozimiga
tayinlandi.**

Obid Chorievich Adilov – 1983 yilda Buxoro viloyati Olot tumanida tug'ilgan, millati o'zbek. 2008 yilda Toshkent avtomobil va yo'llar instituti magistraturasini tamomlagan. O'tgan yillar davomida "O'zavtoyol" kompaniyasi tizimidagi qator korxonalar va tashkilotlarda mehnat qilgan.

Hozirgi lavozimga tayinlanguniga qadar "Avtomagistral" ixtisoslashgan avtomobil yo'llarini qurish-ta'mirlash birlashmasi Toshkent halqa avtomobil yo'lidan foydalanish uchastkasi boshlig'i vazifasida ishlagan.

Eslatib o'tamiz, "O'zavtoyol" aksiyadorlik kompaniyasi boshqaruvi raisining o'rinbosari–bosh muhandisi kompaniyadagi avtomobil yo'llarini qurish, ta'mirlash va ekspluatatsiya qilish, investitsion loyihalarning texnik nazorati, shuningdek, transport, mexanizatsiya va texnik ta'minot sohalariga rahbarlik qiladi.

"O'zavtoyol" AK matbuot xizmati